

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019. Ped.34.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TALABOVA DILRABO TOLIBOVNA

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA INSONPARVARLIK
HIS-TUYG‘ULARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK
SHART-SHAROITLARI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Pedagogical Sciences**

Talabova Dilrabo Tolibovna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'ularini
shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari..... 3

Талабова Дилрабо Толибовна

Педагогические условия формирования гуманных чувств у учащихся
начальных классов..... 25

Talabova Dilrabo Tolibovna

Primary school students to form humanitarian feelings pedagogical conditions.. 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019. Ped.34.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TALABOVA DILRABO TOLIBOVNA

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA INSONPARVARLIK
HIS-TUYG‘ULARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK
SHART-SHAROITLARI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.3.PhD/Ped1770 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qo'qon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) bajarilgan hamda Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ndpi.uz) va "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Erkaboyeva Nigoraxon Shermatovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tajbenova Saule Sarsengaliyevna,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Adizov Baxtiyor Raxmonovich
pedagogika fanlari doktori, professor


Yetakchi tashkilot:

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti

Dissertatsiya himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «21» I kuni soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230 105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.) Tel.: (+99861) 229-40-75; faks: (+99861) 229-40-75; e-mail: nkspi_info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Nukus davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (112 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.) Tel.: (+99861) 229-40-75; faks: (+99861) 229-40-75

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «9» I da tarqatildi.
(2025-yil «9» I dagi 112 - raqamli reestr bayonnomasi).



B.P. Otemuratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.f.d., professor

Z.K. Kurbaniyazova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d., professor

A.Q. Berdimuratova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda barcha sohalarda kechayotgan keng ko‘lamli globalizm etakchi davlatlar o‘rtasida iqtisodiy yetakchilikka intilishning tobora kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Globalizm ta‘sirida marginal madaniyatning qaror topishi, asriy milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar tanazzulining kuchayishi o‘z navbatida milliy jamiyatlarda axborot manipulyatsiyasining qaror topishiga sabab bo‘lmoqda. Yot g‘oyalar ta‘sirida ijtimoiy munosabatlarga nisbatan ma‘naviy-axloqiy yondashuv mohiyatining o‘zgarishi, jamoa fikrining inkor qilinishi natijasida individualizmning tobora kuchayib borayotgani, “erkinlik” niqobi ostida egosentrizm g‘oyalarining targ‘ib qilinayotgani ommaviy manipulyatsiyani, shaxs ongini egallashga bo‘lgan intilishni kuchaytirmoqda. Binobarin, ko‘p millatli jahon hamjamiyati mamlakatlari integratsiyasi insonparvarlik g‘oyalariga asoslanishiga bog‘liq. Shu bois globalizm sharoitida shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotida insonparvarlik g‘oyalarining o‘rni masalasini tadqiq qilish borasidagi ma‘naviy ehtiyojni yuzaga keltirdi. Ushbu ma‘naviy ehtiyojning qondirilishida “XXI asr: yangi gumanizm sari” (“XXI century: towards a new humanism”, Parij, 2012 y.) xalqaro seminari, “Shaxsning XXI asrdagi bo‘lajak huquqlari” (“The future of human rights in the 21st century”, Ankara, 2023 y.) konferensiyasi, “Insonparvarlik qadriyatlari yordamida eng yaxshi demokratiyani barpo etish” Umumjahon insonparvarlik kongressi (“Building better democracies through humanist values”, Kopengagen, Denmark, 2023 y.) o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Dunyo mamlakatlari miqyosida zamonaviy jamiyat taraqqiyotining istiqbolini belgilashda insonparvarlik g‘oyasining asosiy “registoni”ga aylangan “XXI asrning oliy insonparvarlik ta‘limi: muammolar va istiqbollar” (Самара, 2021 г.), “Xalqaro insonparvarlik hamkorligi: yangi talablar va imkoniyatlar” (Йошкар-Ола, 2023 г.) konferensiyalari hamda “Gumanizm va globalizatsiya: milliy madaniyatlar muloqotini belgilovchi mezonlar” (Москва, 2016 г.), “Insonparvarlik va sivilizatsiya rivojining vektorlari” (Москва, 2022 г.) forumlari ijtimoiy munosabatlarning yangi “ufqlari”ni belgilash bilan birga umumjahon zamonaviy ta‘limining muhim yo‘nalishlarini aniqlashga xizmat qildi hamda mazkur yo‘nalishlarda tadqiqot ishlari olib borilishini taqozo etdi.

Respublikada “Tarbiya” o‘quv fanini o‘qitish jarayoniga innovatsion yondashish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insonparvarlik his-tuyg‘usini shakllantirish PISA (The Programme for International Student Assessment; O‘quvchilarning ta‘limiy yutuqlarini baholovchi Xalqaro dastur) reytingi bo‘yicha 2030-yilga kelib¹ jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish, qolaversa, PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study; matnni o‘qish va savodxonlik bo‘yicha Xalqaro rivojlanish (boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun), TALIS (Teaching and Learning International Survey; O‘qitish va ta‘lim bo‘yicha Xalqaro tadqiqot) reytingiga ko‘ra yuqori natijalarni qayd etishdan iborat ijtimoiy-

¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi “Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida “Tarbiya”fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 06.07.2020 yildagi 422-son. <https://lex.uz/uz/docs/-4885018>

milliy maqsadga erishish imkoniyatini ta'minlaydi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish masalalari tadqiqi dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son, 2022-yil 29-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-sonli qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning ishlanganlik darajasi. Boshlang'ich ta'lim mazmuni, uni takomillashtirish, boshlang'ich ta'limni innovatsion texnologiyalar asosida o'qitish, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash, boshlang'ich ta'limni milliy qadriyatlarga tayangan holda tashkil qilish masalalari M.Abdullayeva, O.Jabborova, G.Kuvandikova, L.Muxtorova, G.Normatova, Z.Umarova, Ch.Chimpo'latova, I.Choriyev va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari uchun mavzu bo'lgan bo'lsa, shaxsda insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish, ularni ma'naviy-axloqiy, madaniy jihatdan tarbiyalash, shaxsni vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga sodiqlik yo'nalishlari yuzasidan pedagog olimlar T.Egamberdiyeva, O.Musurmonova, B.Xodjayev, M.Kadirova, R.Safarova, N.Erkaboyeva, N.Abdullayeva, N.S.Temirov, M.B.Ortiqova, Z.E.Azimova, M.Quronovlarning ishlarida N.Gafurova, A.Shakirova, X.Yusupova, U.Maqsudov kabi ilmiy izlanuvchilar tomonidan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim jarayonida tolerantlik ko'nikmalarini rivojlantirish, insoniylik, insonparvarlik g'oyalari shakllanishining tarixiy taraqqiyoti, badiiy talqini, mutafakkirlar ijodi, shuningdek, ta'lim va tarbiyadagi o'rni, insonparvarlikka asoslangan faoliyatni tashkil qilishning xorijiy tajribasi, o'quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlash muammolari o'rganilgan.

MDH mamlakatlarida E.Aliyeva, R.Kasimov, V.Kuvakin, N.Lashko, V.Pomelov, A.Povilaytis kabi tadqiqotchilar tomonidan talabalarni og'zaki xalq ijodini o'rganish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini insonparvarlik ruhida tarbiyalashga tayyorlash, o'smirlarni etnomadaniy tolerantlik ruhida tarbiyalashda ijtimoiy-madaniy faoliyat interfaol shakllarning pedagogik imkoniyati,

insonparvarlik g'oyalarini targ'ib qilishning zamonaviy resurslari, globalizatsiya sharoitida gumanizm ideallarining evolutsiyasi masalalari, I.Vishnyakova, R.Gudnik, E.Nemchenko, K.Omarova, S.Polushkina, A.Rosbayeva, S.Senator kabi ilmiy izlanuvchilar tomonidan esa bevosita bolalar ijodiyoti birlashmalarida folklor vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik munosabatlarini shakllantirish, boshlang'ich sinflarda insonparvarlik tarbiyasini tashkil qilish, boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlikni shakllantirishning pedagogik jihatlari, umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi ko'p millatli jamoada boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida o'zaro insonparvarlik munosabatlarini qaror toptirishning o'ziga xosligi, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasidagi gumanistik munosabatni qaror toptirishda integratsiyaning o'rni muammolari tadqiq qilingan.

Xorijiy mamlakatlarda Brian Robinson, Chad Gonnerman, Kristin Vintermyut (Kristin Wintermute), Kori D.B.Uoker (Corey D.B. Walker), Maykl O'Rurk (Michael O'Rourke), Markus Jerald A. La (Gerald A. La), Kristen (Markus Christen), Peres Zagorin (Perez Zagorin), Rendall A. Pul (Randall A. Poole), Sara Kass (Sarah Kass), Sol Makleod (Saul Mcleod), Stefani E. Vasko (Stephanie E. Vasko) kabi tadqiqotchilarning ishlari uchun insonparvarlikning tarixiy (xususan XXI asrdagi) hamda zamonaviy talqini, diniy qarashlar mazmunida ifodalangan insonparvarlik g'oyalari, ularning shaxs tarbiyasidagi ahamiyati, gumanizm g'oyalarini ifodalovchi qadriyatlar va ular negizida aks etuvchi insoniy burchlar, insonparvar pedagogika va psixologiya asoslari, ijtimoiy fanlarning insonparvarlik asoslarini targ'ib qilishdagi o'rni muammolari tadqiqot mavzusi bo'lib xizmat qilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Ushbu tadqiqot Qo'qon davlat pedagogika institutining pedagogika kafedrasida ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Zamonaviy pedagogik paradigmadagi metodologik xarakterdagi tadqiqotlarni tashkil etishning istiqbollari" mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'usini shakllantirishning pedagogik jihatlari aniqlashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"Tarbiya" fani darslarini tashkil qilish jarayonida original yechimlar, nostandart fikrlashni talab qiladigan texnologiyalar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining insonparvarlik his-tuyg'usini o'zlashtirish imkoniyatlari mavjud tarbiyaviy ta'sir omillarini korrelyatsion o'zaro integratsiyalashuvi asosida takomillashtirish;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zida gumanizm g'oyalarini ifodalagan hayotiy shaxslararo munosabatlar jarayonidagi bevosita ishtirokini ta'minlash orqali ularda attraksiya, empatiya, refleksiya, kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish.

boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'usini shakllantirish jarayonining modelini didaktik o'yinlar, xalqaro PISA standartlari talablariga muvofiq takomillashtirish;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'usining shakllanganlik darajasini baholash mezonlarini aniqlashtirish.

Tadqiqot obyekti sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'usini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish jarayoni tanlab olingan.

Tadqiqot predmetini boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'usini shakllantirishning mazmuni, shakl, metod, vositalari va texnologiyalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari pedagogik, psixologik va metodik xarakterdagi adabiyot hamda internet manbalarini o'rganish; nazariy tahlil, anketa, suhbat, pedagogik kuzatish, pedagogik tajriba, ekspert baholash, matematik-statistik metod.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“Tarbiya” fani darslarini tashkil qilish chog'ida original yechimlar, nostandart fikrlashni talab qiladigan “Tabiat, kel, do'stlashamiz!”, “Odamiylik formulasi”, “Xayr, “yomon” odatlarim”, “Oqibat indikatori” texnologiyalari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining insonparvarlik his-tuyg'usini o'zlashtirish imkoniyatlari mavjud tarbiyaviy ta'sir omillarini korrelyatsion o'zaro integratsiyalashuvi asosida takomillashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zida gumanizm g'oyalari ifodalagan hayotiy shaxslararo munosabatlar jarayonidagi bevosita ishtirokini ta'minlash orqali ularda attraksiya (insonni hurmat qilishni ifodalovchi ijtimoiy yondashuv, insonga qadriyat sifatida munosabatda bo'lish); empatiya (hamdardlik, boshqalarning qayg'usiga sherik bo'lish, o'zgalarning qayg'usini o'z zimmasiga olish); refleksiya (o'z xatti-harakati, yurish-turishi, boshqalar bilan munosabatini mustaqil ravishda tahlil qilish); kreativ (ijtimoiy munosabatlarga ijodiy yondashish) qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyati fasilitatsiyaga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'usini shakllantirish modeli “Rangli qutilar” bellashuvi, “Sehrlı so'zlar sayohati”, “So'zlar xulq ifodasi: + va -” (intellektual), “Inson ruhiyati” sujetli, “Insonparvarlik xaritasi”, “Jamoat transporti”, “Akam (ukam, opam, singlim) uchun hadyalar” o'yinlari kabi ta'limning zamonaviy shakllarini xalqaro PISA (The Programme for International Student Assessment) standartlari talablari (nostandart fikrlash, kreativlik, tahlil, o'z-o'zini boshqarish, tashabbuskorlik, tirishqoqlik, axborotdan foydalana olish, tizimli fikrlash, kirishimlilik, refleksiya)ga muvofiq optimallashtirish asosida takomillashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining insonparvarlik bilim va ko'nikmalari darajasi “Suratdagi milliylik” foto kollaj, “Milliy qahramonlar” katalogini shakllantirish malakalarini erkin, qisman erkin, majburiy ifodalash tarzida baholash orqali va qo'yilgan ballar bo'yicha bosqichma-bosqich darajalash asosida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

marginal madaniyatning yuzaga kelishi bilan bog'liq ziddiyatlarni bartaraf etishga xizmat qiluvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'usini shakllantirishga oid didaktik ta'minot hamda “Globalizm sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'usini shakllantirish” nomli monografiya yaratilgan;

“Tarbiya” o‘quv fanining tegishli mavzularining tarbiyaviy imkoniyatlariga tayangan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insonparvarlik his-tuyg‘usini shakllantirish modeli takomillashtirilgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insonparvarlik his-tuyg‘usining shakllanganlik darajasini baholovchi mezonlar aniqlashtirilgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insonparvarlik his-tuyg‘usini shakllantirishda innovatsion o‘qitishning mentorlik imkoniyatlaridan foydalanishga oid amaliy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot mohiyatining ilmiy-metodologik, nazariy-konseptual hamda empirik-metodik jihatdan tizimli ravishda yoritilgani; ilmiy-pedagogik tajribaning bir necha bosqichda olib borilgani; tadqiqot avvali va yakunidagi tajriba-sinov natijalari o‘rtasida sezilarli farqning mavjudligi; tajriba-sinov ishlari natijalarining statistik ifodaviyligi; mavjud ilmiy-konseptual kontentlarning dalillarga asoslangani; empirik ko‘rsatkichlar haqqoniy ekanining Styudent metodi asosida tasdiqlanganligi; vakolatli organlar tomonidan yakuniy tajriba natijalari asosli ekanligining tasdiqlanganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kognitiv va empirik xarakterga ega ma‘lumotlarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insonparvarlik his-tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qilishi; tadqiqot jarayonining tizimli tahlil qilinganligi; tanlangan ilmiy-pedagogik muammo mohiyatini yorituvchi muhim tayanch tushunchalar – insonparvarlik, insonparvarlik his-tuyg‘usi, insonparvarlik his-tuyg‘usini shakllantirish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insonparvarlik his-tuyg‘usini shakllantirish kabilarning pedagogik jihatdan izohlangani; boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insonparvarlik his-tuyg‘usini shakllantirish modelining asoslanganligi; boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insonparvarlik his-tuyg‘usining shakllanganlik darajasini baholovchi mezonlarning aniqlashtirilgani; tadqiqot natijalarining matematik-statistik tahlil qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini quyidagilar bilan tavsiflash mumkin: boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun amaliy xarakterga ega o‘quv-metodik ta‘minot shakllantirilgan; tegishli sinflarda “Tarbiya” darslarini maqsadli, samarali tashkil etilishini ta‘minlovchi metodik ishlanmalar to‘plami tayyorlangan; tajriba-sinov ishi dasturi va maxsus metodika ishlab chiqilgan. Ulardan boshlang‘ich sinflarda “Tarbiya” fani darslari jarayonida foydalanish o‘quvchilar tomonidan insonparvarlik his-tuyg‘usining puxta o‘zlashtirishishi uchun keng imkoniyat yaratadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insonparvarlik his-tuyg‘usini shakllantirishning yetakchi g‘oyalari, ustuvor tamoyillariga tayangan holda ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy hamda amaliy-metodik tavsiyalar asosida:

“Tarbiya” darslarini tashkil qilish chog‘ida original yechimlar, nostandart fikrlashni talab qiladigan “Tabiat, kel, do‘stlashamiz!”, “Odamiylik formulasi”, “Xayr, “yomon” odatlarim”, “Oqibat indikatori” texnologiyalari vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining insonparvarlik his-tuyg‘usini o‘zlashtirish imkoniyatlari mavjud tarbiyaviy ta’sir omillarini korrelyatsion o‘zaro

integratsiyalashuvi asosida takomillashtirishga doir metodik tavsiyalaridan FZ-2016-0909111822 “Darslik va o‘quv adabiyotlari mazmuniga Sharq pedagogik tafakkuri durdonalarini singdirish orqali o‘quvchilarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish mexanizmlari” (2017-2020 yy.) nomli fundamental loyihani bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 6-sentyabrdagi 11.05-4630/04-son dalolatnomasi). Natijada o‘quvchilar tomonidan milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ijtimoiy-madaniy munosabatlar mohiyatining anglanishini ta’minlovchi bilimlar mustahkamlashga erishilgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zida gumanizm g‘oyalarini ifodalagan hayotiy shaxslararo munosabatlar jarayonidagi bevosita ishtirokini ta’minlash orqali ularda attraksiya (insonni hurmat qilishni ifodalovchi ijtimoiy yondashuv, insonga qadriyat sifatida munosabatda bo‘lish); empatiya (hamdardlik, boshqalarning qayg‘usiga sherik bo‘lish, o‘zgalarning qayg‘usini o‘z zimmasiga olish); refleksiya (o‘z xatti-harakati, yurish-turishi, boshqalar bilan munosabatini mustaqil ravishda tahlil qilish); kreativ (ijtimoiy munosabatlarga ijodiy yondashish) qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyati fasilitatsiyaga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga doir metodik tavsiyalari O‘zbekiston Milliy universitetida 2021-2022-yillarda bajarilgan A-OT-2021-11-raqamli “O‘zbek xalqi diniy va milliy qadriyatlari kompleksining elektron-transdisiplinar platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan va yuqoridagi tavsiyalar ushbu loyiha doirasida nashr etilgan ishlarda o‘z aksini topgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 6-sentyabrdagi 11.05-4630/04-son dalolatnomasi). Natijada o‘quvchilarda shaxslar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni insonparvarlik g‘oyalariga tayangan holda tashkil qilishga doir bilim, malaka va kompetentsiyalari rivojlantirishga erishilgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining insonparvarlik bilim va ko‘nikmalari darajasi “Suratdagi milliylik” foto kollaj, “Milliy qahramonlar” katalogini shakllantirish malakalarini erkin, qisman erkin, majburiy ifodalash tarzida baholash orqali va qo‘yilgan ballar bo‘yicha bosqichma-bosqich darajalash asosida aniqlashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-maydagi 194-sonli buyrug‘i asosida berilgan No194-503 raqamli nashr ruxsatnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan "Oila pedagogikasi" nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Respublika ta’lim markazining 2024-yil 6-sentyabrdagi 01/11-1-633-son ma’lumotnomasi). Natijada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga doir bilimlar ilmiy-nazariy ma’lumotlar bilan boyitishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun

tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, shundan 6 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 145 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot muammosining dolzarbligi asoslangan, pedagogik, psixologik hamda iqtisodiyot yo'nalishlarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar asosida muammoning o'rganilganlik darajasi baholangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti belgilangan. Shu bilan birga tadqiqot g'oyalarning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyatini belgilovchi holatlar xususida so'z yuritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirishning ilmiy-konseptual asoslari**" deb nomlanib, unda, kishilik tafakkurining tarixida insonparvarlik g'oyalarning shakllanish va rivojlanish tendensiyalari, "insonparvarlik" tushunchasining ontogenezi va insonparvarlik negizida aks etuvchi sifatlar hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'usini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari va bosqichlari, to'g'risida so'z yuritilgan.

Zamonaviy dunyoda inson omili, uning huquqlari, imkoniyatlari, ehtiyojlari va manfaatlari to'g'risida so'z yuritilganda "insonparvarlik" tushunchasi faol qo'llaniladi. Ushbu tushuncha inson omilini tavsiflashda ahamiyatli ustuvor tamoyillardan biridir. Shaxslararo munosabatlarni tashkil qilishda insonparvarlik tamoyiliga tayanish subyektlar o'rtasida jamoaviylik, o'zaro hamjihatlik, do'stlik, o'rtoqlik, hamkorlikka erishishni ta'minlaydi. Fuqarolarning bu kabi sifatlarga ega bo'lishi huquqiy jamiyatni qurishda muhim ahamiyatga ega.

Ontogenez nuqtai nazaridan "insonparvarlik" tushunchasi o'zbek tiliga arab va fors-tojik tillaridan kirib kelgan bo'lib, arabcha "inson" ("odam"), forsha-tojikcha "parvar" ("g'amxo'rlik") atamalari hamda "lik" qo'shimchasining birikmasi sifatida qabul qilingan. Ma'no jihatidan bu tushuncha o'zbek tilida "shaxsga g'amxo'rlik qilish", "shaxsni voyaga yetkazish", "shaxsni tarbiyalash", "shaxsga ijobiy munosabatda bo'lish" kabi ma'nolarini anglatadi.

Insonparvarlik – atrofdagilarga yaxshilik va g'amxo'rlik qilish, hurmat bilan munosabatda bo'lish, himmat ko'rsatish, ularni yoqtirish, ular o'rtasida ezgu g'oyalarni targ'ib qilish, ular haqida qayg'urish demakdir. O'zi tanigan-tanimagan kishilarning boshiga biror bir musibat tushsa yoki ular biror-bir muammoga duch kelsa insonparvar shaxs doimo yordamga shoshadi, qo'lidan kelganida ularni qo'llab-quvvatlaydi. Atrofdagilarga nafrat bilan munosabatda bo'lish, ko'ngli torlik, ko'ra olmaslik, ko'ngli qoralik, hasadgo'ylik, adolatsizlik insonparvar shaxsning xulq-atvoriga zid bo'lgan illat hisoblanadi. Mazmunan insonparvarlik g'oyalari umuminsoniy, jamoaviy, individual shaklda tabiiy (toshqin, zilzila, qurg'oqchilik, o'rmon yong'inlari) yoki ijtimoiy (urush harakati, tabiiy ofatdan keyingi tiklanish

jarayoni, zulm, zo‘ravonlik kuchaygan, adolatsizlik, haqsizlik avj olgan vaqt) kataklizmlarda o‘ziga xos dolzarblik kasb etadi.

Tadqiqotni olib borish davrida mavzuga oid manbalarni o‘rganish orqali gumanistik dunyoqarashni quyidagicha guruhlash maqsadga muvofiq deb topildi:

1. Antik gumanizm. Guruhga qadimgi Rim va Yunoniston allomalari – Suqrot, Platon, Aristotel, Mark Tulliy Sitseron, Mark Fabiy Kvintilian tomonidan ilgari surilgan insonparvarlik g‘oyalarini aks ettiruvchi gumanistik dunyoqarash kiritiladi.

2. Qadimgi Sharq gumanizmi. Bu guruhni Xitoyda ilk insonparvarlik g‘oyalarini ilgari surgan Konfutsiy hamda Buddha g‘oyalari tashkil qiladi.

3. Yevropa gumanizmi. Bu ko‘rinishdagi gumanizm g‘oyalari, asosan, quyidagi tamoyillarda namoyon bo‘ladi: har bir inson oxir-oqibat o‘zi va jamiyat uchun foyda keltirish uchun yo‘naltirilgan o‘zini-o‘zi rivojlantirish, bilim olish, kasbiy malakalarni o‘zlashtirish imkoniyatiga ega; har shaxs atrofdagilar va jamiyat oldida o‘zining qarorlari, tanlovi hamda xatti-harakatlari uchun shaxsan javobgardir; ijtimoiy mavjudot sifatida inson madaniy jihatdan taraqqiy etadigan dunyo uchun qandaydir yangi, ijobiy narsani yaratishi va olib kirishi zarur; har bir insonning xatti-harakatlarida axloq va ma‘naviyat tamoyillari, shu bilan birga ongli yondashuv va sog‘lom fikr ustuvor bo‘lishi zarur; har bir inson hayoti noyob va takrorlanmasdir; har bir insonda to‘laqonli ravishda jismoniy va ma‘naviy erkinlikka ega bo‘lish huquqi mavjud; har bir inson o‘z kuchiga tayangan holda baxtli bo‘lish uchun intilishi kerak; har bir inson ham ichki ham tashqi jihatdan go‘zal sanaladi.

4. Islom gumanizmi. Tinchlik, bag‘rikenglik, insonparvarlik, insoniylik xarakteriga ega Islom dinining muqaddas kitobi – “Qur‘on” hamda Muhammad Mustafo (s.a.v.)ning hadislarini asosini inson, uning ruhiy holati, ijtimoiy mavqeyi va maqomiga oid qarashlar tashkil qiladi. Har ikki manbada bayon qilingan insonparvarlik g‘oyalarini ularning mazmuniga ko‘ra shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- 1) atrofdagilar bilan munosabatda samimiy, xushmuomala va bag‘rikeng bo‘lish;
- 2) odamlarni o‘zaro murosaga keltirish, ular o‘rtasidagi adovatga barham berish maqsadidagina yolg‘on ishlatish;
- 3) atrofdagilarning ijtimoiy holatini inobatga olgan holda ularga g‘amxo‘rlik qilish;
- 4) qo‘shnichilikni qadrlash va ular bilan ijobiy munosabatda bo‘lish;
- 5) qarindosh-urug‘chilik rishtalarini mustahkamlash va uni uzmaslik;
- 6) qiyin vaziyatlarda bir-birlariga yordam qo‘lini cho‘zish;
- 7) irq, din, millat yoki elat kishilar o‘rtasida o‘zaro birodarlik va hamjihatlikni qaror toptirish.

5. Axborot texnologiyalar asri va global dunyo gumanizmi. II Jahon urushidan keyin xalqaro miqyosda “diniy e‘tiqodi, turmush tarzi va hayotiy maqsadlari turlicha bo‘lgan xalqlar o‘rtasida o‘zaro tinch-totuv yashash, ularning haq-huquqlarini himoyalashni kafolatlovchi tinchlik, demokratik va insonparvarlik g‘oyalari, yetakchi tamoyillar”ni to‘ldirib chiqish maqsadga muvofiq” deb topildi hamda ushbu g‘oyalarni o‘zida aks ettirgan bir qator hujjatlar ishlab chiqildi.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarda insonparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirishning qulay davri sanaladi. Bu davrda maktabgacha ta'lim davrining izchil davomi sifatida o'quvchilar ijtimoiy ahamiyatga ega ma'naviy-axloqiy me'yorlar bilan tanishadi, ularning ham shaxs ham jamiyat uchun afzalliklarini tushuna boshlaydi. Aynan boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarda o'qish faoliyati bilan bog'liq holda mas'uliyat tuyg'usi shakllanadi. Bu tuyg'u boshlang'ich sinf o'quvchilarini oilada uy yumushlariga, ta'lim muassasasida ijtimoiy-foydali mehnatga jalb qilish orqali asta-sekin tobora mustahkamlanib boradi. Qolaversa, globallashuv jarayonining tezlashuvi, milliy qadriyatlarga mos kelmaydigan, hatto, radikal guruhlar, shu jumladan, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar tomonidan tarbiya borasidagi milliy yondashuvlarga o'ta zid bo'lgan buzg'unchi g'oyalarning "demokratik tamoyillar" sifatida targ'ib qilinishi, shaxs ongini egallashga bo'lgan intilishning kuchayishi negizida boshlang'ich sinf o'quvchilarni asrlar davomida shakllanib hamda e'tirof etib kelingan umumiy insonparvarlik g'oyalar bilan tanishtirish o'ziga xos dolzarblik kasb etadi.

Shu sababli boshlang'ich ta'lim o'quvchilarda insonparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirishning puxta asoslangan mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqot muammosining mohiyatini to'la anglash uchun tayanch tushuncha va iboralar – insonparvarlik, insonparvarlik his-tuyg'usi, insonparvarlik his-tuyg'usini shakllantirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish kabilarning mazmuni bilan tanishish taqozo qilinadi. Ayni o'rinda "insonparvarlik" tushunchasiga mualliflik ta'rifini ishlab chiqdik.

Insonparvarlik jamiyat yoki shaxsning ma'naviy-axloqiy yetukligi darajasini belgilovchi tamoyil va inson huquqlarini himoya qilishning muhim shartidir.

Insonparvarlik fazilati – har bir insonga qadriyat sifatida yondashish, uning sha'ni, g'ururi, or-nomusi, qadr-qimmati, haq-huquqlarini hurmat qilishni ifodalovchi individual xislat, yaxshi xulq.

Insonparvarlik his-tuyg'usini shakllantirish – shaxsda har bir insonga qadriyat sifatida yondashish, uning sha'ni, g'ururi, or-nomusi, qadr-qimmati, haq-huquqlarini hurmat qilishni ifodalovchi individual xislat, yaxshi xulqni tarbiyalashga qaratilgan aniq maqsadli pedagogik faoliyat mazmuni va jarayoni.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'usini shakllantirish – yosh va individual imkoniyatlarini, o'ziga xos psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarini har bir insonga qadriyat sifatida yondashish, uning sha'ni, g'ururi, or-nomusi, qadr-qimmati, haq-huquqlarini hurmat qilishga o'rgatishdan iborat aniq maqsadli pedagogik faoliyat mazmuni va jarayoni. Mazkur jarayon tizimli, integrativ, majmuaviy xarakterni kasb etadi.

Mazkur jarayonning muvaffaqiyatli, kutilganidek, samarali tashkil etilishida muayyan tamoyillarga tayanib ish ko'rish talab qilinadi. Tadqiqot muammosiga oid ilmiy izlanishlar, tegishli adabiyotlar bilan tanishish, ularda ilgari surilgan g'oyalarni nazariy tahlil qilish asosida quyidagi tamoyillarga tayanib ish ko'rish boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'usini shakllantirishda kutilgan natijani qo'lga kiritishga imkon beradi degan fikrga kelindi: tizimlilik, integrativlik, majmuaviylik, interfaollik, korporativlik, shuningdek, polisubyektiv, empirik,

muammoli, vitagen, aksiologik, antropologik, texnologik, madaniy, etnopedagogik, bosqichli, kompetentli hamda sinergetik yondashuvlar.

Tadqiqot maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan “Tarbiya” o‘quv fanining o‘quvchilarda insonparvarlik fazilatlarini shakllantirishdagi imkoniyatlari tahliliy o‘rganildi. O‘rganish natijalariga ko‘ra, ular orasidan bevosita boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insonparvarlik his-tuyg‘ularini shakllantirishga oid mavzular tanlandi.

Mavzularni tanlashda quyidagi omillar hamda ularning ta’limiy, ijtimoiy-tarbiyaviy ta’siri sezilarli darajada ahamiyatli deb topildi: o‘qituvchining kasbiy kompetentligi, o‘quv axborotlari (matn)larning g‘oyasi va mazmuni; matnning bevosita yoki bilvosita insonparvarlik g‘oyasiga egaligi; matnni samarali o‘rganish imkoniyatini ta’minlovchi metodika; boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining insonparvarlik his-tuyg‘usiga egaligini tashxislovchi indikator; boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insonparvarlik his-tuyg‘usining izchil rivojlanib borishini nazorat qiluvchi monitoring.

Tahlil natijalari boshlang‘ich sinflarda “Tarbiya” fani²dan quyidagi mavzular o‘quvchilarda insonparvarlik his-tuyg‘ularini shakllantirishda o‘ziga xos pedagogik imkoniyatga ega ekanini ko‘rsatdi (1-jadval):

1-jadval

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insonparvarlik his-tuyg‘ularini shakllantirishga oid mavzular (“Tarbiya” fani bo‘yicha)

| Mavzular | Mavzu nomlari | Mavzular | Mavzu nomlari |
|-----------------|-------------------------------------|----------------|---------------------------------------|
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| <i>I sinf</i> | | | |
| 1-mavzu | Vatan ishonchi | 9-10-mavzular | Har narsaning o‘z o‘lchovi bor |
| 2-mavzu | Salomlashish odobi | 16-mavzu | Sehrlil so‘zlar |
| 6-mavzu | Maktabim – gulshanim | 22-23 mavzular | Yaxshi va yomon odatlar |
| 7-8-mavzular | Men sevgan ertak qahramonlari | | |
| <i>II sinf</i> | | | |
| 5-6 mavzular | Qarisi bor uyni parisi bor | 24-mavzu | Insonparvarlik |
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| 7-8 mavzu | Maktabim – qadrdonim | 27-mavzu | Do‘stlik – oliy fazilat |
| 13-mavzu | Jamoat transportida | 28-mavzu | Sovg‘a berish va sovg‘a olish tartibi |
| <i>III sinf</i> | | | |
| 21-mavzu | Inson odobi bilan go‘zal | 26-mavzu | Mahalla va qo‘ni-qo‘shnichilik |
| 22-mavzu | Mehr-oqibat – insoniy fazilat | | |
| <i>IV sinf</i> | | | |
| 2-mavzu | O‘zbekiston – ko‘p millatli davlat | 24-mavzu | Baxt oiladan boshlanadi |
| 10-mavzu | Yaxshilik qilish xikmati | 26-mavzu | Ona – ulug‘ zot |
| 11-12 mavzular | Imkoniyat va matonat | 29-mavzu | Insonni xotirlash – milliy qadriyat |
| 20-mavzu | Muvaffaqiyat bir jamoaga aylanishda | | |

² Ismatova N va b. Tarbiya. 1-sinf o‘quvchilari uchun darslik. 1-nashr. – Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 64 b.; Ismatova N va b. Tarbiya. 2-sinf o‘quvchilari uchun darslik. 1-nashr. – Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 64 b.; Ro‘ziyeva D va boshqalar. Tarbiya. 3-sinf o‘quvchilari uchun darslik. – Toshkent. “Sano-standart”, 2020. – 97 b.; Shermuhammedova S va b. Tarbiya. 4-sinf o‘quvchilari uchun darslik. – Toshkent. “O‘zbekiston” NMIU, 2020. – 96 b.

1-4-sinflarda “Tarbiya” darslarida ajratib olingan mavzular bo‘yicha o‘quvchilarda insonparvarlik his-tuyg‘ularini samarali shakllantirish jarayonida quyidagi tushunchalarning o‘zlashtirilishiga erishiladi:


I sinfda: vatanparvarlik, kirishimlilik, xushmuomalalik, muomala odobiga ega bo‘lish, o‘zaro yordam ko‘rsatish, hurmat qilish, boshqalarga ozor bermaslik, birovning narsasiga ruxsatsiz tegmaslik, tabiatni sevish, tabiatga ehtiyotkorona munosabat, tejamkorlik, atrof-muhitga, insonlarga ziyon yetkazmaslik, atrof-muhitni ifloslantirmaslik.

II sinfda: kattalarga g‘amxo‘rlik, kattalarni hurmat qilish, yumushlarni bajarishda kattalarga ko‘maklashish, ehtiyotkorlik, tejamkorlik, jamoa mulkini asrash, odamiylik, kattalar va ayollarga hurmat, nogiron kishiga mehribonlik qilish, o‘zgalarga yordam berish, do‘stlik, hamdardlik, o‘zaro yordam, iltifotlilik, e‘tiborlilik, mehrlilik, oqibatlilik.

III sinfda: xushmuomalalik, shirinso‘zlilik, iltifotlilik, yaxshilik, mehrlilik, oqibatlilik, insoniylik.

IV sinfda: qardoshlilik, odamiylik, insoniylik, hamjihatlilik, totuvlik, yaxshilik, do‘stlik, tolerantlik (bag‘rikenglik), muruvvatlilik, himmatlilik, mehrlilik, oqibatlilik, olijanoblik.

Tadqiqot mavzusiga oid adabiyotlar va manbalar bilan tanishish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insonparvarlik his-tuyg‘ularini shakllantirish jarayonining yetti bosqichda amalga oshirilishiga ishonch hosil qilindi. Ular quyidagilardir (1-rasm):



1-rasm. Boshlangich sinf o‘quvchilarida insonparvarlik his-tuyg‘ularini shakllantirish jarayonining bosqichlari

Shaxsda insonparvarlik his-tuyg‘usini shakllantirish, rivojlantirish muammosi o‘z mohiyati, ijtimoiy ahamiyatiga ko‘ra klassik xarakterga ega. Ya’ni, ushbu masala barcha zamon va makonlarda shaxs tarbiyasini tashkil etishda markaziy o‘rin egallagan. Yevropa va Sharq mutafakkirlarining insonparvarlikka oid qarashlarini o‘rganish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Ijtimoiy mavjudot sifatida shaxs barcha davrlarda ham o‘zaro yordam, himmat ko‘rsatish, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, bir-birini tushunish, muammoli vaziyatlarda hamdard bo‘lish, boshqalar muvaffaqiyat qozonganda ularning quvonchiga sherik bo‘lish, yoshi kattalarni hurmat, yoshi kichiklarni izzat qilish kabi ma’naviy-axloqiy ehtiyojlarga ega bo‘lgan.

2. Ushbu ehtiyojlarning qondirilishi ijtimoiy subyektlar o'rtasida o'zaro yaqinlik, totuvlik, ahillik, tinchlikning qaror topishini ta'minlagan.

3. Shu sababli yagona nom bilan insonparvarlik deb nomlanuvchi bu xislatning shaxsda shakllantirish va rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj barcha makon va zamonda ham dolzarb ahamiyat kasb etgan.

4. Insonparvarlik g'oyalari turli elat, millat yoki xalqning tarixiy taraqqiyoti jarayonida kuzatilgan muhim jarayonlar, o'zgarishlar hamda ijtimoiy yondashuvlar negizida takomillashib borgan.

5. Muayyan elat, millat yoki xalqning insonparvarlik xislati hayotiy qiyin, murakkab sharoitlar – tabiiy ofatlar ro'y berganda, urush harakatlari olib borilganda, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'lgan.

6. Globallashuv jarayoni, milliy qadriyatlarga nomuvofiq buzg'unchi g'oyalarning jamiyat hayotiga kirishiga bo'lgan urinish tobora kuchayotgan mavjud sharoitda turli yosh davri, shu jumladan, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni asrlar davomida shakllanib hamda e'tirof etib kelingan umumiy insonparvarlik g'oyalar bilan tanishtirish, ularda insonparvarlik his-tuyg'usini shakllantirish dolzarblik kasb etadi.

Ishning **“Boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'usini shakllantirishning amaliy-metodik asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'usini shakllantirish muammosining ilmiy-pedagogik jihatdan o'rganilishi tahlil qilingan hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'usini shakllantirish metodikasining mohiyati ochib berilgan

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tadqiq etilayotgan ilmiy-pedagogik muammoning mavjud holati ham nazariy ham amaliy jihatdan o'rganildi. O'rganish natijalariga tayangan holda shunday xulosaga kelish mumkin: shaxs ma'naviyatining yuqori darajada rivojlanganligini anglatuvchi insonparvarlik his-tuyg'usi, turli yosh davrlarida uni shakllantirish (rivojlantirish) zamonaviy pedagogika fanining tadqiqot obykti sifatida kun tartibiga chiqqan; MDH hamda O'zbekiston sharoitida mazkur yo'nalishda turkum ilmiy izlanishlar olib borilgan va ularda muayyan natijalarga erishilgan; biroq globallashuv sharoitida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni o'zgarishi, yangi turdagi qarashlar ta'sirida shaxs ma'naviyatiga qo'yiladigan ijtimoiy talablarning qo'yilishi natijasida turli yosh davrlariga mansub subyektlarda insonparvarlik his-tuyg'usini shakllantirish (rivojlantirish) muammosi yanada dolzarblashmoqda; bu esa mavjud ijtimoiy-ma'naviy ehtiyoj hamda shaxsni o'ziga xos qadriyat deya e'tirof etgan holda zamonaviy yangi axloqiy qadriyatlar nuqtayi nazaridan yondashish zaruriyatini inobatga olgan holda mustaqil tadqiqotlarni amalga oshirishni taqozo qiladi.

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda metodik platformani yaratish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Zero, aynan ushbu platforma tadqiqot maqsadiga erishish imkoniyatini yaratuvchi asosiy tashkiliy-tayyorgarlik hamda amaliy-texnologik maydon sanaladi. Shu bois tadqiqotni olib borish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik platformani yaratishga asosiy e'tibor qaratildi.

Metodik platformani yaratishga qaratilgan ilmiy-pedagogik faoliyat quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirildi:

I. Nazariy tahlil – umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-4-sinflari uchun mo‘ljallangan “Tarbiya” fanining mundarijasiga kiritilgan mavzular mazmunini o‘rganish. Bu jarayonda har bir mavzu ularning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insonparvarlik fazilatini shakllantirishga xizmat qilishi; ijtimoiy-tarbiyaviy imkoniyati, ahamiyati nuqtai nazardan o‘rganildi.


II. Didaktik skrining – mavzular orasidan bevosita boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insonparvarlik his-tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladigan mavzularni ajratib olish. Mavzular orasidan bevosita boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insonparvarlik his-tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladigan mavzular ajratib olindi. Didaktik skrining natijasida 1-4-sinflarga mo‘ljallangan “Tarbiya” o‘quv fani bo‘yicha quyidagi mavzular boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insonparvarlik his-tuyg‘usini shakllantirish imkoniyatiga ega ekani aniqlandi: 1-sinf – 7 ta mavzu; 2-sinf – 6 ta mavzu; 3-sinf – 3 ta mavzu; 4-sinf – 7 ta mavzu.

III. Didaktik loyihalash – ajratib olingan mavzular bo‘yicha didaktik (ta’limiy) loyihalarni ishlab chiqish. Tadqiqot jarayonida ajratib olingan mavzular bo‘yicha quyidagi didaktik (ta’limiy) loyihalar ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan ta’limiy loyihalar asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-4-sinflarning o‘quvchilarida vatanparvarlik, kirishimlilik, xushmuomalalik, o‘zaro yordam ko‘rsatish, hurmat qilish, boshqalarga ozor bermaslik, birovning narsasiga ruxsatsiz tegmaslik, tabiatni sevish, tabiatga ehtiyotkorona munosabat, tejamkorlik, muomala odobi, atrof-muhitni ifloslantirmaslik hamda atrof-muhitga va insonlarga ziyon yetkazmaslik, kattalarga g‘amxo‘rlik, ularni hurmat qilish, yumushlarni bajarishda kattalarga ko‘maklashish, ehtiyotkorlik, tejamkorlik, jamoa mulkini asrash, kattalar va ayollarga hurmat, odamiylik, nogiron kishiga mehribonlik qilish, o‘zgalarga yordam berish, do‘stlik, hamdardlik, o‘zaro yordam, mehrlilik, oqibatlilik iltifotlilik, e‘tiborlilik, xushmuomalalik, shirinso‘zlilik, iltifotlilik, oqibatlilik, yaxshilik, mehrlilik, insoniylik, qardoshlilik, totuvlik, do‘stlik, tolerantlik, hamjihatlilik, bag‘rikenglik, o‘tganlarni xotirlash; o‘tganlarga nisbatan hurmatni ifodalash; o‘tganlarning xotirasini yodda saqlash; ajdodlarga munosib voris bo‘lishga intilish kabi insonparvarlik sifatleri shakllantirildi.

IV. Texnologik loyihalash – tajriba sinovidan o‘tkazish uchun har bir sinf (1-, 2-, 3- va 4-sinflar) bo‘yicha namuna sifatida muayyan bir mavzuning texnologik loyahasini tayyorlash. Tajriba sinovidan o‘tkazish uchun har bir sinf (1-, 2-, 3- va 4-sinflar) bo‘yicha namuna sifatida muayyan bir mavzuning texnologik loyihasi tayyorlandi.

“Tarbiya” darslarini tashkil qilish chog‘ida original yechimlar, nostandart fikrlashni talab qiladigan “Tabiat, kel, do‘stlashamiz!”, “Odamiylik formulasi”, “Xayr, “yomon” odatlarim”, “Oqibat indikatori” texnologiyalari, “Rangli qutilar” bellashuvi, “Sehrli so‘zlar sayohati”, “So‘zlar xulq ifodasi: + va –” (intellektual), “Inson ruhiyati” sujetli, “Insonparvarlik xaritasi”, “Jamoat transporti”, “Akam (ukam, opam, singlim) uchun hadyalar” o‘yinlari, “Suratdagi milliylik” foto kollaj, “Milliy qahramonlar” katalogi vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan insonparvarlik his-tuyg‘usini samarali o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lindi.

Tanlangan ilmiy-tadqiqot muammosining mohiyatini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish natijalariga ko‘ra boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insonparvarlik his-tuyg‘usini shakllantirish jarayonining mohiyati yorituvchi modelning strukturasi boyitishga imkon beradi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirishning tarkibiy-tuzilmaviy modeli

